

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)
Каланова Сабохат Мурадovна
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Жиянмуратова Гулноз Шербутаевна
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. профессор (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Акмал Гадаймурадovич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат, Кутбидинов Файзиддин РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ О ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ.....	11
2. Karimov Bobir JAMOADA MOTIVATSIYA VA SAMARADORLIK.....	18
3. Mamatov Normurat IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALAR SIYOSIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	28
4. Rasulov Abdimumin SHAXSNING SOTSIAL INTELLEKTUALLIK KO‘RSATKICHLARI VA KAMOLOT OMILILARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	35
5. Xusanova Hayriniso IJTIMOIY NIHOYA TIZIMINING KONSEPTUAL MODEL.....	43
6. Abduxalilov Abdullo NOGIRONLIK FENOMENINI TADQIQ ETILISHINING METODOLOGIK JIHATLARI.....	49
7. Якубов Ильдар КОНЦЕПЦИЯ ГИБРИДНОЙ ВОЙНЫ КАК ФОРМЫ СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНФЛИКТОВ.....	57
8. Abdullayev Akmal O‘RTA ASRLARDA G‘ARBIY YEVROPADAGI DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TUZILMALARIGA OID KONSEPSIYALARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	63
9. Хасанова Мавлюда СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПОСТРОЕНИЯ ГУМАННОГО ГОСУДАРСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	74
10. Jiyanmuratova Gulnoz, Urunboyeva Janona O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISLOHOTLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	80
11. Алимухамедова Нодира ИСТОРИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЭТНОНАЦИОНАЛЬНЫХ КОНЦЕПЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	90
12. Tolipov Abdug‘affor VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNING O‘SIB BORISHIGA TA‘SIR QILUVCHI IJTIMOIY OMILLAR.....	96
13. Berdimuratov Marat YOSHLARNI IJTIMOIY RIVOJLANTIRISH UCHUN OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA SOTSIOLOGIYA FANINI O‘QITISHNI OMMALASHTIRISH.....	104

14. Хамиджонов Умиджон	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ПОНЯТИЙ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ.....	110
15. Ixtiyarov Farhod	
INSON KAPITALINI KEYS-STADI NEGIZIDA TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALAR.....	116
16. Хасанова Мавлюда	
АНАЛИЗ ВОПРОСОВ БОРЬБЫ С БЕДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.....	124
17. Radjabova Aziza	
NATIONAL DEVELOPMENT POLICIES IN THE CONTEXT OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	131
18. Kalanova Sabohat	
JAMIYATDA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING SOTSIAL STRUKTURASI.....	138
19. Ixomjon Xudayarov	
ETNOMADANIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA YUMSHOQ EVOLYUSION MOSLASHUV TENDENSIYASI.....	148
20. Tagaymuratova Gulchehra	
KONSANGUIN NIKOHLAR FENOMENINING IJTIMOY OMILLARI VA BIOETIK YONDASHUVLAR.....	155
21. Jabborov Jaxongir	
YOSHLARNI ISHGA JOYLASHTIRISHNING IJTIMOY XAVFLARI VA TO'SIQLARI: NEET GURUHI, PREKARIZATSIYA, RAQAMLI TENGSIZLIK.....	162
22. Ixtiyarov Farhod	
DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	170
23. Xasanov Sharofidin	
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN QAYTGAN YOSHLARNI IJTIMOY HAYOTGA REINTEGRATSIYALASH: XORIJ TAJRIBASI.....	179
24. Nurulloev Shahriyor	
MILLIY INTERNET-MEDIA SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA VAZIFALARI.....	189
25. Аликариев Нуриддин	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.....	195
26. Alikariyeva A'loxon	
OLIV TA'LIMDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMI INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	202


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Nurulloev Shahriyor,

О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
e-mail: shahriyorjon@gmail.com

MILLIY INTERNET-MEDIA SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA VAZIFALARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18099607>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada milliy internet-media siyosatini rivojlantirish orqali yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda internet texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongi, dunyoqarashi hamda ijtimoiy faolligiga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, milliy media kontent, teleseriallar, blogerlik faoliyati va axborot xavfsizligi mexanizmlarining yoshlar ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Xorijiy tajribalar tahlili asosida yoshlarni ijtimoiy jarayonlarga jalb etishning samarali media modellari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda internet texnologiyalarini inkor etmasdan, mafkuraviy va milliy media siyosatni takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan. Maqolada milliy internet-media orqali yoshlarni aniq maqsadlarga yo‘naltirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, ijtimoiy faollik, internet-media, milliy media siyosat, ijtimoiy tarmoqlar, mafkura.

Нуруллоев Шахриёр,

Независимый соискатель Академии государственной политики
и управления при Президенте Республики Узбекистан
e-mail: shahriyorjon@gmail.com

ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ ПОСРЕДСТВОМ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В ОБЛАСТИ ИНТЕРНЕТ-МЕДИА: ПРОБЛЕМЫ И ЗАДАЧИ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются теоретические и практические аспекты повышения социальной активности молодежи посредством развития национальной интернет-медийной политики. В ходе исследования изучено влияние интернет-технологий и социальных сетей на формирование сознания, мировоззрения и социальной активности молодежи. Особое внимание уделено роли национального медиаконтента, телесериалов, блогерской деятельности и механизмов информационной безопасности в стимулировании социальной активности молодежи. На основе анализа зарубежного опыта рассмотрены эффективные медиамодели вовлечения молодежи в социально-политические процессы. Результаты исследования показывают, что повышение социальной активности молодежи требует

совершенствования национальной и идеологической интернет-медийной политики с учетом современных цифровых реалий. В статье разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по активизации молодежи через национальные интернет-медиа.

Ключевые слова: молодежь, социальная активность, интернет-медиа, национальная медиapolитика, социальные сети, идеология.

Nurulloev Shakhriyor,

Independent PhD Candidate, Academy of Public Policy and
Administration under the President of the Republic of Uzbekistan
e-mail: shahriyorjon@gmail.com

INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF YOUNG PEOPLE THROUGH THE DEVELOPMENT OF A NATIONAL INTERNET MEDIA POLICY: PROBLEMS AND OBJECTIVES

ABSTRACT

This article examines the theoretical and practical aspects of increasing youth social activity through the development of national internet media policy. The study explores the impact of internet technologies and social networks on shaping young people's consciousness, worldview, and social engagement. Particular attention is paid to the role of national media content, television series, blogging activities, and information security mechanisms in fostering youth social activity. Based on the analysis of international experience, effective media models for engaging youth in social and political processes are identified. The findings demonstrate that enhancing youth social activity requires the improvement of national and ideological internet media policies in line with contemporary digital realities. The article offers scientifically grounded recommendations and proposals for directing youth engagement through national internet media.

Keywords: youth, social activity, internet media, national media policy, social networks, ideology.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamlashuv sharoitida internet texnologiyalari jamiyat hayotining barcha sohalariga, ayniqsa yoshlar ijtimoiy faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyo aholisining salmoqli qismini tashkil etuvchi yoshlar qatlami jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'naviy jarayonlardagi ishtirokini oshirish masalasi har bir davlat uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham yoshlar siyosati davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ayni paytda internet va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi yoshlar ongi, dunyoqarashi va ijtimoiy faolligi shakllanishiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda, qator muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, yoshlar o'rtasida mafkuraviy bo'shliq, milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlik, yolg'on axborotlar ta'siri, kiberbulling va internet orqali sodir etilayotgan huquqbuzarliklar dolzarb muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, milliy internet-media siyosatini rivojlantirish orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalasini ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, milliy media kontent, ijtimoiy tarmoqlardagi ta'sirchan kommunikatsiya vositalari, teleseriallar, blogerlik faoliyati va axborot xavfsizligi mexanizmlarining yoshlar faolligiga ta'sirini kompleks o'rganish zarur.

Mazkur maqola maqsadi – milliy internet-media siyosatini rivojlantirish orqali yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda milliy internet-media siyosatining o'rni va ta'sirini o'rganish maqsadida kompleks ilmiy metodlar tizimidan foydalanildi. Tadqiqotning

metodologik asosini ijtimoiy fanlarda keng qo'llaniladigan nazariy va amaliy yondashuvlar tashkil etdi.

Jumladan, tahliliy metod orqali yoshlar ijtimoiy faolligi, internet texnologiyalari va milliy media kontent o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston tajribasi xorijiy mamlakatlar, xususan AQSh va Yevropa davlatlaridagi internet-media siyosati va yoshlar faolligiga oid modellar bilan solishtirib o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida kontent-tahlil metodi qo'llanilib, milliy telekanallar, ijtimoiy tarmoqlar, blogerlik faoliyati va ommaviy axborot vositalaridagi yoshlarga qaratilgan media mahsulotlar mazmuni o'rganildi. Shuningdek, sotsiologik so'rovlar va ilmiy tadqiqotlar natijalariga tayangan holda yoshlarning media iste'moli, qiziqishlari va ijtimoiy faollik darajasi tahlil qilindi. Tadqiqotning empirik bazasini milliy va xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, rasmiy statistik ma'lumotlar, ilmiy maqolalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda internet manbalari tashkil etdi.

ASOSIY QISM

«Faollik (arab. tez, shiddatli harakat) – shaxsning hayotda ma'lum bir maqsad yo'lidagi ilg'or va intiluvchan xatti-harakatlarini namoyon etishini anglatuvchi tushuncha. Jamiyatning taraqqiyoti bilan doimiy munosabatini ushlab turuvchi, insonning o'z-o'zini anglab, har bir harakatini ma'naviy faoliyatiga muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat – bu uning faoliyatidir» [1, – B.57-58]. Ushbu ta'rifda keltirilganidek, jamiyatning taraqqiyoti bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi yoshlarni faol yoshlar deb atashimiz mumkin. Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 25 foizini yoshlar tashkil etib, ularning aksariyati rivojlanayotgan mamlakatlar va Markaziy Osiyo hissasiga to'g'ri keladi [3]. Bu esa yoshlar guruhini yanada chuqurroq tadqiq etishni taqozo etmoqda.

Yoshlarning ijtimoiy faolligi deganda davlat siyosatida faol ravishda ishtirok etishlari, ijtimoiy jihatdan savodxonlikka ega, ijtimoiy qarorlarni qabul qilish jarayonida o'z ishtiroki bilan ta'sir ko'rsata olishi tushunilishi mumkin. Hozirgi “Zet avlod” vakillarining vazifalarni avtomatlashtirish, hayotning har bir jabhasini internet texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish, vazifalarga ortiqcha vaqt sarflamaslik, yuqori moslashuvchanlik kabi xislatlar ushbu avlodni boshqalaridan ajratib turadi. Shu bilan birga ushbu davr vakillarining rivojlanishida bir qator qiyinchiliklar ham mavjud.

Birinchidan bugungi yoshlar orasidagi yangi sinflarning shakllanishi kuchaymoqda, birinchidan yoshlar orasida yillar davomida ulug'langan mashaqqatli mehnat faoliyatiga munosabatning o'zgarishi. Bugungi kunda yoshlar orasida internet texnologiyalarining rivojlanishi va ulardan foydalanishda turli katta va kichik huquqbuzarliklarni sodir etish. Yengil va oson mablag' ortishga bo'lgan intilish oqibatida moliyaviy qarzdorliklarni oshishi. Ushbu internet orqali mablag' ortirishga bo'lgan ishtiyoq oqibatida yoshlar orasidagi “boqimandalik” kayfiyatini ortishiga sabab bo'lmoqda. Halol mehnat qilish, sabr toqat tushunchalarining yoshlar orasidagi ahamiyatining yoqolib borishi.

Ikkinchidan, yoshlarning milliy qadriyatlarga nisbatan begonalashuvning paydo bo'lishi. Diniy va dunyoviy qadriyatlarga zid bo'lgan hayot tarziga o'tish holatlarining ko'payib hamda bunga targ'ib qilish. G'arbdan internet tarmoqlari orqali kirib kelayotgan “yumshoq kuch” texnologiyalari ta'sirida yoshlarning dunyo qarashlarida hayot maqsadlarida o'z “men”ligini moddiy manfaatlar, millatimizda axloqsiz deb belgilangan xulq atvorni targ'ib etuvchi qatlami shakllanmoqda.

Uchinchidan, yoshlarimizning turli internet “qahramonlari” orqali noto'g'ri diniy bilimlarga, buzg'unchi g'oyalarga qiziqishlarning ortishi kuzatilmoqda. Bu orqali oshlarni Yaqin Sharq mamlakatlariga noqonuniy migratsiyani amalga oshirishga urinishlarni keltirib chiqarmoqda.

Bu borada mamlakat rahbari «Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko'plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi» [2, – B.1] deb ta'kidladi.

Ushbu muammolarni hal etishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori Komiljon Allamjonov ta'kidlaganidek, "internet bor ekan, bu yo'ldan orqaga qaytishning iloji yo'q. Bu xohishga bog'liq emas. Biz faqatgina shu sharoitga moslashishimiz kerak. Va bugungi internet asrida, ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan bir paytda biz faqat u bilan ishlashni o'rgana olibgina hayot kechirishimiz mumkin" [4], darhaqiqat bugungi kunda yoshlarni ushbu holatlardan asrash maqsadida internetni o'chirib qo'ya olmaymiz. Internetga qo'yilgan cheklovlarni ham chetlab o'tuvchi dasturlarni ishlab chiqib turli internet saytlaridan foydalanishmoqda.

Yoshlar faolligini internet texnologiyalari rivojlanish davrida rivojlantirishdagi asosiy yondashuv bu g'oyaviy hamda mafkuraviy bo'lib qolmoqda. Yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda bir necha bosqichlarni shakllantirish mumkin birinchidan, yoshlar orasidagi jamiyatni rivojlantirishga qaratilishgan ijtimoiy g'oyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu g'oya atrofida yoshlarni birlashtirish va aniq maqsad sari yo'naltirish o'z samarasini beradi.

Ushbu g'oyaga misol tariqasida bugungi kunda dunyo bo'ylab yoshlarni o'z atrofida jamlay olgan Fridays for Future iqlim o'zgarishini oldini olishga qaratilgan harakatni shuningdek, bugungi kunda ijtimoiy adolatsizliklarni bartaraf etishga qaratilgan Black Lives Matter kabi yoshlar harakatlarini misol keltirish mumkin. Ushbu ijtimoiy g'oyalar o'z atrofida yoshlarni jamlagan holda aniq maqsad sari yo'naltira olgan. Bundan kelib chiqib bugungi kunda yoshlar orasidagi asosiy muammo va kamchiliklarni o'rgan holda asosiy g'oyani shakllantirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Ikkinchidan, yoshlarni qiziqitira oladigan milliy media kontentni shakllantirish. Zero, yoshlar ongiga ta'sir qilining eng kuchli metodlari bu reklama va moda. Ya'ni yosh davrlar psixologiyasi hamda omma psixologiyasida shaxsning atrofida shaxslarning xatti harakatlariga o'xshashga bo'lgan intilishi haqida ma'lumot beradi. Demak, yoshlar orasidagi ijtimoiy faollikni targ'ib etuvchi metodlarni ishlab chiqish lozim. Bu borada «Yuksalish» umummilliy harakati respublika bo'ylab fuqarolar orasida fuqarolarning davlat va xususiy telekanallar tomonidan efirga uzatilayotgan teledasturlarga nisbatan munosabati o'rganish maqsadida o'tkazgan sotsiologik so'rovnoma natijalariga ko'ra qo'yidagi natijalar olingan: 1-o'rin – Zo'r TV (11,8%), 2-o'rin – Sevimli (9,6%), 3-o'rin – Mening yurtim 5 (9,4%), 4-o'rin – Milliy TV (6,9%), 5-o'rin – Futbol TV (6,8%). Natijalardan ko'rinib turibdiki, fuqarolar uchun asosiy telekanal bu Zo'r TV (11,8%) bo'lib, asosiy yo'nalish bu ko'ngil ochar dasturlarga qaratilgan. Afsuski, ushbu dasturlar ham xorijiy telekanallardagi shoularning analoglari sanaladi [9].

Telekanallarimizda yoshlarni davlat boshqaruvi, davlat siyosatiga qiziqitiruvchi hamda ular uchun namuna bo'la oladigan qahramonlarni shakllantirishga qaratilgan kino filmlar, seriallarning yetishmasligi ham masalani yanada qiyinlashtiradi. Mafkuraviy yondashuvda seriallar, kino filmlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, yoshlar psixologik tarzda o'zlari o'xshashni orzu qilgan qahramonlarni ushbu serial va kino filmlar orqali ham kashf etadilar. Bunga misol tariqasida, 90 yillarni so'ngida chiqqan "Shaytanat" seriali ham yoshlar orasida turli qahramonlarni shakllantirgan. Ijtimoiy jihatdan ushbu serial asosan salbiy qahramon obrazini yoshlar uchun namuna qilib qo'ygan.

Buning aksi sifatida 2000 yil telekanallarga chiqqan "Sardor" serialining ta'siri bo'lgan. Ma'lumki, 2000 yillarda dunyo bo'ylab ekstremizm va terrorizmga qarshi qattiq kurashlar ketgan davr sanaladi. Aynan o'sha vaqtlar O'rta Osiyo fuqarolarning AQShga migratsiyasi kuchaygan davrga to'g'ri keladi. Shunday tahlilki davrlarda yoshlarda vatan tuyg'usini ulug'lash, sadoqat, jamoaviylik ruhini qaytarishga ushbu serial chin ma'noda o'z hissani qo'shgan deb ayta olamiz.

Bugungi kunda ham teleseriallar o'z ta'sirini yo'qotmagan, «Yuksalish» umummilliy harakati tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra fuqarolar orasida milliy telekanallar orqali efirga uzatiladigan ko'rsatuv va dasturlar haqidagi fikrlar tahlili shuni ko'rsatdiki, birinchi beshlik: 1-o'rin – yangiliklar, axborot dasturlari (12,1%), 2-o'rin – teleseriallar (11,4%), 3-o'rin – «Xafa bo'lish yo'q» (Zo'r TV), 4-o'rin – sport teledasturlari, futbol, (9,5%) 5-o'rin – "Munosabat" (O'zbekiston) (8,3%). Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki bugungi kunda oynayi jahon orqali efirga uzatiluvchi teleseriallar hali ham o'z ta'sirini yo'qotmagan. Shunday ekan milliy teleseriallarimizda yoshlarni

ijtimoiy faollikka undovchi, davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishga qaratilgan g'oyalar targ'ibotini shakllantirish maqsadga muvofiq sanaladi [9].

Bu bo'yicha jahon tajribasiga yuzlanar ekanmiz AQShning Pew tadqiqot markazining bergan xabariga ko'ra mamlakatdagi ijtimoiy jarayonlarga yoshlarni faolligini oshirishga qaratilgan qator film hamda teleseriallar ishlab chiqilgan. Shulardan biri "Yashab qolmoq" (The West Wing) bo'lib, ushbu teleserialni AQShning sobiq prezidenti Barak Obama tomonidan e'tirof etilishi natijasida 65% yoshlar ushbu teleserialni tomoshasidan so'ng saylovlarda faol, umuman davlat siyosatiga qiziqishi uyg'onganini bildirishgan.

Shuningdek, ijtimoiy faollikda gender tengligini ta'minlar hamda yosh ayol qizlarni siyosatga qiziqishini oshirish maqsadida ishlangan yana bir teleserial "Skandal" (Scandal) bo'lib, 2015-yilda ushbu teleserial namoyishidan so'ng yosh ayol qizlarning ijtimoiy karerani shakllantirish, umuman ijtimoiy faolligi dunyo bo'ylab 10% oshgan. AQShning o'zida 2016-yilgi AQSh Senatiga bo'lgan saylovlarga kandidatlar soni 158 taga etgan ushbu ko'rsatgich tarixda birinchi marotaba bo'lgan. AQSh Senatining ayollar soni 25% oshgan. O'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalariga ko'ra ayol qizlarning 60% aynan "Skandal" (Scandal) teleseriali bosh qahramonidan ruhlanib ijtimoiy jarayonlarga bo'lgan qiziqishi hamda faolligi ortib borgan. Shuningdek, ayol qizlar siyosat bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar olisha boshlashgan [7].

Bu borada Alabama universiteti professorlari Brayn Lamb hamda Jenifer Xou hammuallifligida 2017-yil davomida yoshlar orasida muntazam ijtimoiy jarayonlarni yorituvchi film, teleserialni ko'rsatish natijasida yoshlarning fikrlash tarzlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqot o'tkazilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, siyosat to'g'risidagi teleseriallar yoshlarda ijtimoiy ongni shakllantirish hamda rivojlantirishga hamda yoshlarning ijtimoiy jarayonlarga bo'lgan shaxsiy mas'uliyatini oshirishga turtki bo'lganini ta'kidlashgan[9].

Milliy media kontentda ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar uchun namuna bo'la oladigan "blogger"ni shakllantirish hamda qo'llab quvvatlash orqali yoshlar orasidagi ijtimoiy jarayonlarga, jamiyatdagi o'zgarishlarga bo'lgan pozitiv munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Ushbu tajriba AQSh Kongresi a'zosi Alexandria Ocasio-Cortezning ijtimoiy tarmoqlardagi kuzatuvchilarining 60% yoshlar tashkil etadi. Uning ijtimoiy tarmoqlar orqali faoliyatini yuritishi hamda yoshlar bilan onlayn muhokamalar olib borishi natijasida 2020-yili 25% saylovchilar Alexandria Ocasio-Cortezning ijtimoiy tarmoqdagi faoliyati ularni ijtimoiy jarayonlarga qiziqishini orttirganini bildirishgan [5]. Xuddi shu kabi holat London meri Sadiq Khanning o'z lavozimiga kelgunga qadar va lavozimga o'tishi bilan ham doimiy ijtimoiy tarmoqlarda o'z kuzatuvchilari xususan yoshlar bilan doimiy aloqa olib borgan.

Uning yoshlar bilan faoliyati asosan ekologiya, inklyuziv ta'lim hamda shahardagi mavjud muammolar tahlili va yechimi bilan bog'liq bo'lgan. Londonning 58% 18-34 yoshdagi yoshlari asosan siyosatni ijtimoiy tarmoqlardan bilishi hamda Sadiq Khanning olib borayotgan faoliyati ularni ijtimoiy faollikka undashini bildirishgan.

Ushbu olib borilgan ishlar natijasida Sadiq Khanning 2021-yilgi saylovlarda 2014-yilga nisbatan 14% yuqori ovoz olgan. Uning asosiy qo'llab quvvatlovchilari yoshlar guruhini tashkil etgan [6]. Yuqorida keltirilgan ijtimoiy tarmoq bloggerlarining "xalq bilan" yaqinligi ularning ijtimoiy jarayonlarni ijtimoiy pozitiv tomondan yoritishi shuningdek, yoshlarni qiynab kelayotgan muammolarni doimiy ravishda o'rganib borishlari natijasida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishgan.

Uchinchidan, yoshlar orasida internet hamda ijtimoiy tarmoqlardagi kiberbullinga qarshi dasturlarni ishlab chiqish va uning salbiy oqibatlarini haqida xabardorligini oshirishdan iborat. Aslida, ko'plab huquqbuzarliklar yoshlarning yetarli ma'lumotlarga ega emasliklari oqibatida yuzaga keladi. Shunday ekan ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan xabarlarining turli neyrotarmoqlar yordamida yaratilayotgan bo'lishi mumkinligini hamd xabarlarini tarqatishda ehtiyot bo'lishga chorlash muhim. Ijtimoiy tarmoqlardagi turli musiqa orqali aniq manbaalarga ega bo'lmagan ma'lumotlarni tarqalishini oldini olish maqsadida ularni manbalarini tekshirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada Yevropa Ittifoqining "No Hate Speech Movement" (NHSM) dasturini misol keltira olamiz. Ushbu dastur yoshlar orasida bugungi kunda internet tarmoqlaridagi turli propagandalarga, kiberzaharlashlarga qarshi immunitetni shakllantirishga qaratilgan. Bunda asosiy e'tibor yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, internet tarmoqlaridagi turli xavfli vaziyatlarning keys tahlillari, mavjud muammolarni muhokama etish orqali targ'ib etiladi. Yoshlar bilan muloqot onlayn treninglar, turli ijtimoiy video roliklar orqali olib boriladi [10].

Dasturdan asosiy maqsad yoshlarda sog'lom ijtimoiy psixologik dunyoqarashni shakllantirishdir. Zero, bugungi kunda internet texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yoshlardagi reallikning chegaralari buzilib bormoqda. Bugungi kunda bu kabi dasturlarni maktablarning xususiyatdan kelib chiqqan holda mamlakatimizga ham joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar tomonidan turli huquqbuzarliklarni sodir etilishi, kiberzaharlash holatlari ham yuz berish ehtimoli yuqori.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib quyidagi xulosalar olindi. Birinchidan, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda bugungi kunda internet texnologiyalarini chetlab o'tishning iloji yo'q bo'lib bormoqda. Shunday ekan bugungi kunda yoshlarning faolligiga ta'sir ko'rsata oluvchi mafkuraviy ishlarni olib borish maqsadga muvofiq sanaladi. Mafkuraviy ishlarni olib borishda avvalambor yoshlar orasida keng ta'sir o'tkaza oladigan "yangi zamon qahramonlarini" shakllantirish lozim. Ushbu qahramonlarni shakllantirishda bugungi milliy media-kontentini ishlab chiqish hamda yoshlarni ongi tafakkuriga pozitiv ta'sir eta oluvchi dasturlarni ishlab chiqish lozim.

Ikkinchidan, psixologik jihatdan "yoshlarni o'z ustida ishlashga undovchi shaxs bu ularning tengdoshlari" sanaladi. Ushbu fikrni davom ettirar ekanmiz haqiqatdan ham dissertatsiyaning ikkinchi bobida keltirilgan tadqiqot natijalarida keltirilganidek, bugungi kunda yoshlar orasida Sobiq sovet ittifoqidan qolgan stereotip fikr "tanishing bo'lsa"ni yo'qotish uchun ijtimoiy tarmoqlar video kontentini shakllantirish lozim.

Bunda asosiy e'tibor "xalqdan chiqqan" yoshlarining yutuqlari va bosib o'tgan yo'llari haqidagi hujjatli filmlar, podkastlarni rivojlantirish. Ushbu yondashuvning ahamiyatli jihati yoshlar orasida hali ham saqlanib qolayotgan eski davrga xos bo'lgan stereotip fikrlarni yo'qotishga yordam beradi.

Адабиётлар/ Литература/ References:

1. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: «Ғафур Ғулом» номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – Б. 57-58.
2. Мирзиёев Ш.М. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар – эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир. «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV курултойидаги нутқи. // «Халқ сўзи». 2017 йил 1 июль. – Б. 1.
3. <https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/8531>
4. <https://qalampir.uz/news/ork-aga-yul-kho%D2%B3lasak-%D2%B3am-yuk-buning-uchun-fak-at-internetni-uchirib-k-uyishimiz-kerak-allamzhonov-12019>
5. https://www.washingtonpost.com/?reload=true&itid=force_refresh&_=1745831243297
6. <https://yougov.co.uk/>
7. The Influence of Female Lead Characters in Political TV Shows: Links to Political Engagement <https://www.researchgate.net/publication/331835970>
The_Influence_of_Female_Lead_Characters_in_Political_TV_Shows_Links_to_Political_Engagem ent
8. TV dramas can influence viewers' political engagement <https://newslab.org/dramas-can-influence-viewers-political-engagement/>
9. <https://yumh.uz/>
10. <https://www.coe.int/en/web/no-hate-campaign>

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000